

## **"Scopus Award-2019"da kafedra professori taqdirlandi**

2018 - yil 23 - martdagi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Elsevier kompaniyasi o'rtasida imzolangan respublika OTMlarini dunyoning yetakchi universitetlari reytingiga kiritish bo'yicha "Ilm-fan - 2020" milliy rivojlanish dasturi doirasida 6 dekabrb kuni "Zarafshon" kontsert zalida yil davomida samarali faoliyat ko'rsatgan O'zbekistonlik yetakchi olimlarni taqdirlash "Scopus Award-2019" marosimi bo'lib o'tdi. Ushbu tadbirda Bosh vazir o'rinnbosari Aziz Abduhakimov, vazirlik va tashkilotlar rahbarlari, QS, Times Higher Education kabi dunyoning yetakchi reyting agentliklari vakillari, Elsevier kompaniyasi mutaxassislari, xorijlik ekspertlar, oliy ta'lim muassasalari rektorlari, prorektorlari va doktorantlar qatorida ET va QTEM kafedrasi professori Obid Tursunov ham ishtirok etdi.



Quvonarli jihat, turli nominatsiyalar bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritgan respublikamizning 37 nafar olim va tadqiqotchilari qatorida kafedra professori Obid Tursunov ham "Best Scopus Journey" nominatsiya bo'yicha taqdirlandi. Ushbu yutuq institutda, shu jumladan kafedrada faoliyat yuritayotgan yosh izlanuvchilar hamda kelajakda ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishni maqsad qilgan talabalar uchun motivatsiya bo'lib xizmat qilishiga ishonamiz.



**"Elektr ta'minoti va qayta tiklanuvchan energiya manbalari " kafedrasi 2 kurs magistranti  
Nurislom Abdug`aniyev axboroti**

**Institut matbuot xizmati R. Jumaniyozov**